

Date: 29th October-2025

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTINING OLIY TA'LIM
MUASSASALARI BILAN XALQARO HAMKORLIKNI YO'LGA QO'YIB
BORISHI**

Rahmonov Farruh Hofiz o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish
metodikasi (tarix) mutaxassisligi II bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jizzax davlat pedagogika institutining mahalliy oliy o'quv yurtlari va xalqaro oliy o'quv yurtlari bilan o'rnatgan aloqalari va samaradorligi haqida fikrlar yuritilgan.

Annotation: This article discusses the effectiveness of Jizzakh State Pedagogical Institute's relations with local higher educational institutions and international higher educational institutions.

Аннотация: В данной статье рассматривается эффективность взаимоотношений Джизакского государственного педагогического института с местными высшими учебными заведениями и международными высшими учебными заведениями.

Kalit so'zlar: Oliy o'quv yurtlari, mahalliy, xalqaro, shartnoma, seminar, trening, xalqaro hamkorlik.

Key words: Higher educational institutions, local, international, contract, seminar, training, international cooperation.

Ключевые слова: Высшие учебные заведения, местные, международные, контракт, семинар, обучение, международное сотрудничество.

Mustaqillik yillarida Jizzax davlat pedagogika instituti o'z faoliyatini yanada kengaytirish, rivojlangan mamlakat oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlik o'rnatish va tajriba almashish maqsadida xalqaro hamkorlikka yanada muhim e'tibor berdi.

Jizzax davlat pedagogika institutida 2000-2001-o'quv yili davomida ilmiy darajaga ega bo'lgan professor o'qituvchilar soni yana oshdi. Jumladan 4ta doktorlik va 10 dan ortiq nomzodlik dissertatsiyalari muvaffaqiyatli himoya qilindi. Professor o'qituvchilarni malakasini oshirish va tajriba o'rganish maqsadida Fransiya, AQSH, Janubiy koreya, Rossiya, Malayziya, Isroil kabi rivojlangan mamlakatlarga jo'natishgan. 2004-2005-o'quv yiliga e'tibor beradigan bo'lsak institutning moddiy texnik bazasi zamonaviy talablarga javob bera oladigan darajada ekanligiga guvoh bo'lamiz. 2000-2001-o'quv yili jarayonida o'quv tarbiyaviy ishlar ancha rivojlanganligini va institutda o'qish istagi yanda abutiriyentlar orasida oshib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan 2000-2001-o'quv yilida institutning kunduzgi va sirtqi bo'limlarida jami 5136 nafar talaba, kunduzgi bo'limning o'zida esa 2540 nafar talaba tahsil olgan¹¹. Demak bu statistik ma'lumotlardan

¹¹ Institutning o'quv tarbiyaviy ishlari 2000-2001-o'quv yili xisoboti



Date: 29th October-2025

ko'rinib turibdiki, Jizzax viloyati maktab o'quvchilarini tarbiyalash, ularga ta'lim berish uchun, Jizzax davlat pedagogika instituti

malakali kadrlar tayyorlashda o'zining butun imkoniyatlarini ishga solganligini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari mustaqillikning dastlabki yillarida birinchi prezidentimiz I.a.Karimovning bir guruh ijodkorlar bilan bo'lib o'tgan suhbatida "Ma'naviyat yo'q joyda, taraqqiyot yo'q" deb aytib o'tib ketgan. Mana shu so'zlar va shu suhbat jarayoni nafaqat Jizzax davlat pedagogika instituti balki butun respublika oliyo'quv yurtlari, maktablarga dasturamal bo'lib xizmat qilgan.

Yuqoridagilarni xisobga olgan holda Jizzax davlat pedagogika institutida ham har bir jarayonda yuksalish va rivojlanish bo'ldi. Jumladan o'quv xonalari, laboratoriyalar yangi asbob-uskunalar bilan qaytadan jihozlangan. Bundan tashqari yuksak malakali professoro'qituvchilar safi kengaydi. Bu ishlar bilan bir qatorda Jizzax davlat pedagogika instituti xalqaro hamkorlikda ham ulkan marralarni zabt etdi. Jumladan Markaziy osiyo mamlakatlari, Moskva, Kiyev, Sankt-Peterburg, Novosibirsk, Sveddlovsk oliy o'quv yurtlari va ilmiy tekshirish institutlari bilan mustahkamaloqani yo'lga qo'ydi¹². Institutda o'tgan turli yillar davomida o'quv jarayonini yaxshilash maqsadida moddiy texnik bazasini mustahkamlash jarayonida, ilmiy pedagogic kadrlar tayyorlash borasida ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirilgan. Bunday ishlarni amalga oshirish jarayonida Jizzax Davlat pedagogika institutiga Moskva, SanktPeterburg, Kiyev shaharlaridagi oliy-o'quv yurtlari hamda Toshken, Samarqand universitetlari, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti, Toshkent kibernetika ilmiy-tadqiqot institutlari malakali o'qituvchi hodimlarni tayyorlashda o'zlarining amaliy yordamlarini ayamagan. Xorijiy tillar fakultetida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilar har o'quv yilida Samarqand davlat chet tillar instituti hamda Toshkent davlat jahon tillari universitetida malakalarini oshirib kelgan. Bundan tashqari xorijiy tillar fakultetida aQShning Georgetown universiteti ekspert o'qituvchisi Miss Vivianne Marcel institutga jalb qilib fakultet talabalariga bir yil davomida dars mashg'ulotlarini o'tib berish jarayonini yo'lga qo'ydi. Yana aytish mumkinki Miss Vivianne Marcel nafaqat talabalar balki institutning professor o'qituvchilariga ham mahorat darslarni o'tib berdi. Dars mashg'ulotlari jarayonida yangi interaktiv metodlar talabaning psixologiyasi va va shunga o'xshash talabalarga darsni to'g'ri yetkazish masalalari ko'rildi. Juda kam vaqt o'tganiga qaramasdan o'z iqtidorini ko'rsatib, talabalarning bilim olishiga va professor-o'qituvchilar bilan tajriba almashish jarayoniga o'zining samarali mehnatini ayamaganligi tufayli barchaning ko'nglidan chuqur joy egalladi. Jizzax davlat pedagogika institutida Xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida "Xalqaro hamkorlik bo'limi" tashkil qilingan. Jizzax davlat pedagogika instituti instituti ta'lim jarayonida xalqaro aloqalarni rivojlantirib, rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tajribasini o'rganish va uni analiz qilgan holda oliy dargohga jalb qilish muhim vazifalardan sanaladi.

¹² Institut arxivi 2-fond – 3-ish17-bet

Date: 29th October-2025

Jizzax davlat pedagogika instituti xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish jarayonida quyidagi vazifalarni belgilab olgan.

- oliy ta'limda faoliyat olib borayotgan professor o'qituvchilarni malakasini oshirish.
- oliy ta'lim muassasasida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilarni xorijiy ilmiy-amaliy seminar va simpoziumlarda faol ishtirok etishi.
- oliy ta'lim muassasasida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilar va tahsil olayotgan talabalarni xorijiy almashinuv dasturlari va seminar treninglarda keng ishtirok etishi. - Xorijiy davlatlarda faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilarni oliy ta'lim muassasasiga ta'lim jarayonini takomillashtirish va tajriba almashish maqsadida ishlashga taklif qilish.

Jizzax davlat pedagogika instituti dunyoning rivojlangan mamlakatlari, angliya, Turkiya, Belarussiya, Fransiya, Janubiy Koreya, Rossiya, Qozog'iston, ozorbayjon, Hindiston kabi davlatlar bilan xalqaro hamkorlikni amalga oshirib kelmoqda. Xalqaro shartnomada oliy ta'lim muassasalari professor o'qituvchi va talabalar almashish, professor o'qituvchilar va talabalar turli konferensiya va seminarlarda ishtirok etishi, hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar olib boorish, ilmiy maqolalar chiqarish va boshqa bir qancha masalalar belgilangan. o'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xitoy xalq respublikasining ta'lim vazirligi bilan 1999-yil 8-noyabrda "Ta'lim sohasida hamkorlik" to'g'risidagi shartnoma imzolangan. Imzolangan shartnoma tufayli o'zbekistonning qator oliy o'quv yurtlaridan fan nomzodlari, yosh mutaxassislar va talabalar ilmiy amaliyot o'tkazmoqdalar. Jizzax davlat pedagogika instituti Koreya respublikasining xalqaro hamkorlik bo'yicha agentliklari, Britaniya kengashi, Hindiston texnik hamkorlik dasturi, BMT ning rivojlanish dasturi va yana bir qancha ta'limga oid xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro samimiy munosbat o'rnatib kelmoqda. Jizzax davlat pedagogika institutida amalga oshirilgan barcha dastur va loyihalar institutda oliy ta'limni rivojlantirish, rivojlangan mamlakatlarning eng zamonaviy metod va tajribalarini qo'llagan holda o'quv-tarbiyaviy jarayon sifatini yanda oshirish, professor o'qituvchilar tajriba almashgan holda malakasini yanda oshirib, talabalar almashinuvini yanada kengaytirish kabi masalalar belgilab qo'yilgan.

Jizzax davlat pedagogika instituti Yevropa ittifoqining trasmus Mundus deb atalgan ta'lim dasturida faol ishtirok etib kelyotganligi hammani quvontiradi.

o'zbekistonda faoliyat olib borayotgan oliy ta'lim muassasalari hamda Jizzax davlat pedagogika instituti Yevropa ittifoqining talabalar, o'qituvchilarning akademik tezkorligi, oliy o'quv yurtlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan Erasmus Mundus dasturida ham ishtirok etadi. Mazkur dastur doirasida institutning professor-o'qituvchilari va talabalari Yevropaning oliy ta'lim muassasalarida ilmiy amaliyot o'tish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bugungi kunda chet davlat o'qituvchilarini institutga jalb qilish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda jumladan Koreya Respublikasining xalqaro hamkorlik bo'yicha agentligi KoICA bilan xalqaro hamkorlik ishlari olib borilmoqda. Bundan tashqari Jizzax davlat pedagogika instituti 2 ta xorijiy ta'lim muassasasi bilan



Date: 29th October-2025

qo'shma ta'lim dasturiga ega hisoblanadi. Jumladan Belarussiyaning Banarovich universiteti bilan "2+2" ko'rinishida va Belarussiya davlat pedagogika universiteti bilan "3+1" ko'rinishidagi hamkorliklar.

2020-yil 3-dekabrda qabul qilingan "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-4910 ijrosi bo'yicha litseylarning xalqaro oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorliklari bandi bo'yicha 2021-yil 17-fevralda Jizzax davlat pedagogika instituti qoshidagi akademik litsey faollar zalida WoRLD UZ kompaniyasi bilan hamkorlikda aQSh da ta'lim jarayoni, sifatli va talabalarning hayoti haqida UNIVERSITY oF DELaVaRE mutaxassisi Kallyn Rekos bilan birgalikda vebinar bo'lib o'tdi. Kallyn Rekos litsey talabalari bilan samimiy suhbat qurdi. Bu suhbat litsey talabalariga katta motivatsiya berdi. ahamiyatli jihati shundaki vebinarni Jizzax davlat pedagogika instituti Xorijiy tillar fakulteti, xorijiy filiologiya kafedrasini mudiri o.Haydarova va WoRLD UZ kompaniyasi vakili a.Bahramov tashkillashtirdi. o'zbek tili va adabiyoti fakulteti o'z ish faoliyatini tashkil qilishda va fakultet professor o'qituvchilari o'z mavzusi bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish maqsadida Respublikamizning turli xil oliy o'quv yurtlari bilan aloqa o'rnatib kelmoqda. Jumladan o'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining til va adabiyot instituti, Buxoro davlat unibersiteti, Toshkent pedagogika universitetlari bilan hamkorlikda ilmiy daraja olish jarayoni bo'lib kelgan. Fakultetda faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilarning bunday nufuzli oliy o'quv yurtlari bilan birgalikda ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishi har tomonlama yurtimizda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilishdan boshqa narsa emas. Kafedralarda faoliyat olib borgan professoro'qituvchilarning ilmiy-tadqiqot ishlari o'zbek adabiyotshunosligi va o'zbek tilshunosligi fanlarining dolzarb masalalariga bag'ishlanib, uslub va yangi zamonaviy pedagogic texnologiyalarni joriy qilish hamda yangi o'zbek alifbosida yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etish kabi muhim vazifalarni qamrab olgan. Professor-o'qituvchilarning mana shunday ilmiy izlanishlari natijasida yuzaga kelgan qimmatli manbalar nafaqat oliy o'quv yurtining o'zida balki Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan umumta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlariga muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. Jizzax davlat pedagogika instituti tomonidan Respublikaning juda ko'plab oliy o'quv yurtlari bilan munosabat, aloqalari juda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Yana shuni ta'kidlash joizki institutning o'zbek tili va adabiyoti fakultetini tomomlagan X.Jo'rayev o'zining doktoranturadagi faoliyatini Qo'lyozmalar institutida davom ettirmoqda.

Fakultetda atoqli yozuvchi o'zbek romanchiligining asoschisi a.Qodiriy hayoti va ijodiga bag'ishlangan badiiy kechalar har yili muntazam o'tkazib kelinmoqda. Bunday nufuzli tadbirga tashrif buyurgan Respublika oliy-o'quv yurtlari professoro'qituvchilari va mehmonlar alohida zabq olib tadbir jarayonida ishtirok etib kelgan. Yana shuni aytib o'tishimiz mumkin a.Qodiriy hayoti va ijodi bilan yaqindan tanishish maqsadida alohida burchak tashkil qilingan. Fakultetning professor-o'qituvchilari yurtimizda faoliyat ko'rsatib kelayotgan kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va umumta'lim maktablari bilan yaqindan aloqalarni yo'lga qo'yib kelgan. Bundan tashqari "o'zbek tili va adabiyoti



Date: 29th October-2025

o'qitish ta'limi milliy-amaliy masalari" mavzusida hamkorlikni yo'lga qo'ygan holda keng miqyosda tadqiqot ishlarini amalga oshirib kelgan.

1991-yil 18-sentabrda tashkil qilingan Sharq tillari kafedrası ham o'zining ilmiy tadqiqot izlanishlari orqali institut nufuzini mustahkamlashga xizmat qilgan. Jumladan J.Lapasov tomonidan "Badiiy tekstning lingvistik tahlili" va "Mumtoz adabiy asarlar o'quv lug'ati" singari kitoblari va "Yusuf va Zulayho" dostoni morfologiyasi deb atalgan morfografiyasi hozirgi zamon talablarini o'sha zamondagi til jarayoni qanday bo'lganligi bilan yaqindan tanishtirishga xizmat qilgan.

Boshlang'ich ta'lim fakulteti ham viloyatimizda faoliyat olib borayotgan umumta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari bilan yaqindan aloqani yo'lga qo'ygan. Shu o'rinda institut talabalari o'zlarining pedagogic amaliyotlarini maktablarda, akademik litsey va kasb hunar kollejlari o'tab kelishi institut va umumta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'rtasidagi aloqani isboti bo'lib xizmat qilmoqda. Maktab o'qituvchilari bilan hamkorlik jarayonida asosan nimalarga e'tibor berib kelinmoqda. Jumladan milliy tarbiyaga oid anjumanlar tashkil qilish, muloqot davra suhbatlari tashkil qilish va hokazolar. Bundan tashqari bilimli, ilg'or, yetuk boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ish tajribalri o'rganilib, metodik tavsfiyanomalar sifatida viloyatimizda faoliyat olib borayotgan boshlang'ich sinf o'qituvchilariga yetkazib berib kelingan. Institutda amalga oshirilgan manaviyma'rifiy tadbirlar ham keng aloqa tizimini yo'lga qo'yishga xizmat qilib kelmoqda. Turli yillar davomida "oila", "Sog'lom avlod", "ayollar" yillariga bag'ishlab Boshlang'ich ta'lim fakultetlarida muntazam ijodiy kechalar amalga oshirilgan bundan tadbirlarda qo'shni viloyat oliy-o'quv yurtlaridan mehmonlar tashrif buyurib chuqur taassurotga ega bo'ib qaytishgan. Fizika va texnologiya fakulteti ham xalqaro aloqani yaxshi yo'lga qo'ygan. Masalan xalqaro miqyosda Kiyev, Moskva, Sankt-Peterburg kabi nufuzli oliy o'quv yurtlari bilan uzviy aloqa o'rnatib kelmoqda. Bundan tashqari fakultet yurtimizda faoliyat olib borayotgan Buxoro, Toshkent, Samarqand, andijon, Farg'ona shaharlaridagi oliy o'quv yurtlari bilan o'quv, ma'naviy-marifiy jarayonlar va ilmiy hamkorlikni muntazam yo'lga qo'yib kelgan. Yana shuni aytib o'tadigan bo'lsak fakultet zavodlar, ishlab chiqarish fabrikalari, korxonalar bilan ham muntazam aloqani yo'lga qo'yib kelgan. Bundan asosan o'qitishni takomillashtirish ko'proq amaliy jarayon bilan bog'lash borasida ko'pgina amaliy ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Jizzax davlat pedagogika instituti akademik litsey va texnikumlar bilan aloqani rivojlantirib bormoqda. Jumladan Jizzax davlat pedagogika institut qoshida oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2001-yil 30-apreldagi buyrug'i bilan Sayiljoy akademik litseyi" tashkil qilindi. Viloyatdagi eng nufuzli litseylar sirasiga kiradi. akademik litseyda 4 ta o'qitish yo'nalishi bo'yicha dars jaraayonlari amalga oshirib kelinmoqdaman. Yana shuni aytib o'tish kerak litseyda oliy o'quv yurtlarining turdosh kafedralariga hamohang hayotda guruhlar tashkil qilingan. Masalan "Ijtimoiy gumanitar fanlar", "Xorijiy tillar", "aniq fanlar", "Tabbiy fanlar" kabi. Kafedra filiallari litseyda faoliyat ko'rsatib kelmoqda. 4 ta yo'nalishda tahsil olayotgan litsey talabalariga 89 nafar malakali o'qituvchilar dars



Date: 29th October-2025

mashg'ulotlarini o'tib kelmoqda. o'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 6-sentabr 2019yildagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida" PF-5812-sonli farmoni va 2020-yildagi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining "oliy ta'lim muassasalari huzuridagi texnikumlar faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 355-sonli buyrug'i asosida Jizzax davlat pedagogika instituti huzuridagi G'allaorol xizmat ko'rsatish va servis texnikumi tashkil etildi. Texnikum faoliyati davomida Jizzax davlat pedagogika instituti bilan mustahkam aloqa olib bormoqda. Turli yillar davomida Jizzax davlat pedagogika instituti Yurtimizning saviyali oliy o'quv yurtlari bilan ham hamkorlikni mustahkam yo'lga qo'yib kelgan. Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat fakulteti misolida oladigan bo'lsak. Fakultetning ilmiy salohiyatini oshirish va professor o'qituvchilarni ilmiy tadqiqot ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish va tajriba almashish maqsadida o'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti, Toshkent davlat pedagogika universiteti, a.avloniy nomidagi Toshkent davlat o'qituvchilar malaka oshirish va qayta tayyorlash instituti, Samarqand davlat universiteti va boshqa oliy o'quv yurtlari bilan ham mustahkam shartnomalar imzolangan. Fizika-matematika fakulteti hozirgi kunda alohida fakultetlar sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Rossiyaning Dubna shahrida joylashgan Yadroviy tadqiqotlar markazi bilan, hamda M.Tank nomidagi Belorussiya pedagogika universiteti bilan xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yib kelgan. Xalqaro hamkorlikdan tashqari Respublikamizda faoliyat ko'rsatib kelayotgan M.Ulug'bek nomidagi o'zbekiston Milliy universiteti, Respublika fanlar akademiyasi, Romonovski nomidagi Matematika instituti, Fizika-texnika instituti, Zamonaviy axborot texnologiyalar ilmiy texnika markazi, Toshkent davlat pedagogika universiteti hamda a.Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti bilan o'zaro hamkorlik yo'lga qo'yib kelingan. Xorijiy tillar fakultetida faoliyat ko'rsatib kelgan T.abdazov va X.Mamatqulovlar aQSh da malakasini oshirishgan 2002-yilda. Yana shuni aytib o'tadigan bo'lsak 2007-yilda Q.Darvishova, a.anorboyev va T.abdazovlar Malayziyada malaka oshirib qaytishgan bo'lsa, 2008-yilda N.Yusupova, T.abdazov,

Sh.Pardayevlar Xitoy Xalq Respublikasida malaka oshirib qaytishgan. Bularning bari Jizzax davlat pedagogika institutining Xorij davlat oliy o'quv yurtlari bilan diplomatic xalqaro hamkorlik olib borayotganidan dalolat beradi. Tarix fakulteti ham xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan Viloyat miqyosida maktablar, mahalla fuqarolar yig'inlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida "Hamkorlik aloqalari" guruhi tashkil qilingan. Mazkur guruh boshlig'i Xolboyev.Z guruh a'zolari esa Majidov.a, Ibragimov.a, Shodiyev.Z, ashirmatov.a va Tangirov.N kabi professor-o'qituvchilar tashkil qiladi. Tarix fakulteti respublikamizda hamda xorijda faoliyat yuritayotgan oliy o'quv yurtlari bilan yaqin aloqalar o'rnatib kelmoqda. Bu hamkorlik jarayonida o'quvuslubiy, ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-tadqiqot masalalari belgilab olingan. Tarix fakulteti Rossiyaning nufuzli universitetlaridan bo'lgan Moskva davlat universiteti va Novosibirsk davlat universitetlari bilan yaqindan xalqaro munosabatlarni o'rnatib kelmoqda. Bundan tashqari Respublikamizda faoliyat ko'rsatib kelayotgan o'zbekiston milliy universiteti, Samarqand

Date: 29th October-2025



davlat universiteti, Toshkent davlat pedagogika universiteti, Guliston davlat universiteti, o'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi qoshidagi milliy arxeologiya markazi va tarix universiteti kabi ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlari bilan yaqindan munosabatlat yo'lga qo'yilgan. Yana aytib o'tadigan bo'lsak Jizzax davlat pedagogika instituti siyosiy partiyalar, mahalliy davlat organlari, yoshlar tashkiloti, xotin-qizlar tashkiloti, nodavlat-notijorat tashkilotlar bilan o'zaro faoliyat turlari bo'yicha yaqindan aloqalarni yo'lga qo'ygan.

Tarix fakultetida "Falsafa, tarbiya va huquq ta'limi" kofedrası ham hamkorlik aloqalarini yuksaltirishda o'zining munosib xissasini qo'shib kelmoqda. Respublikamizda faoliyat olib borayotgan nufuzli oliy ta'lim muassasalari hamda o'rta maxsus va maktablar bilan o'quv-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy va ilmiy tadqiqot sohalari bo'yicha o'zaro shartnomalar imzolangan. Kafedra yurtimizda faoliyat olib borayotgan Samarqand davlat universiteti, o'zbekiston milliy universiteti, Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, Jizzax politexnika institutlari bilan yaqindan aloqalar o'rnatgan. Kafedra tashkilotlar bilan ham kerakli shartnomalarni imzolagann. Xalqaro aloqalarni rivojlantirishda keng ko'lamli ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Jumladan kafedra tomonidan 2020-2021-o'quv yilida Qozon Federal universiteti, o'sh o'zbek-Qirg'iz universiteti, Samara Davlat universiteti kabi oliy o'quv yurtlari bilan ma'naviy-marifiy va ilmiy-tadqiqot sohasida keng ko'lamli shartnomalar imzolanib, xalqaro hamkorlik jarayoni yo'lga qo'yilgan. "Innovatsion rivojlanishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb masalalari" mavzusida 2020-yil 20noyabrda xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi. Tadbir yakunlangandan so'ng 211 ilmiy tezislar nashrdan chiqdi va bu materillarni 65 tasi xorijlik olimlar muallifligi ostida chop etildi. Ilmiy-amaliy konferensiyaning yakuniy qismida o'zaro hamkorlik masalalarini yanada mustahkamlash borasida bir qancha takliflar o'rta tashlandi. asosiy masala online seminarlar va vebinarlar tashkil qilish va akademik almashinuvlarni tashkil etish kabi jarayonlarga qaratildi. Kofedrada faoliyat olib borayotgan ilmiy darajaga ega professor o'qituvchilarni yuqori impakt faktorga ega bo'lgan xorijiy jurnallarga tahririyat a'zosi qilib kiritish masalalariga alohida e'tibor berib o'tildi. Quvonarlisi shundaki 2021-yilda kofedra professor o'qituvchisi B.ochilova yuqori impakt faktorga ega bo'lgan jurnal tahririyati a'zoliciga qabul qilindi. Bu yuqoridagi aytib o'tgan yutuqlar nafaqat kofedra balki Jizzax davlat pedagogika institutining ham nufuzi baland ekanligidan dalolat berib turadi. Jizzax davlat pedagogika institutining xalqaro oliy o'quv yurtlari va respublikamizdagi oliy o'quv yurtlari bilan amalga oshirilayotgan xamkorliklari oliygohni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yana shuni aytib o'tish joizki tarix fakulteti ham xalqaro munosabatlarni yaxshilash maqsadida bir qancha ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Jumladan 2021yilda, ijtimoiygumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (tarix) yo'nalishiga qabul qilingan magistrallardan Xalilov Nurimsaida (Rossiya NGU) ning professor o'qituvchisi Krivoshapkin andrey Innokentiyevich rahbarligi ostida "arxeologicheskil stoyanki verxnogo paleolita v Uzbekistane (v primere Zerafshanskogo oazisa)" mavzusida va

Date: 29th October-2025

Mamarasulov Umidga (Rossiya NGU) ning professor o'qituvchisi Zuev andrey Sergeyevich rahbarligi ostida "Razvitiya trgovno-ekonomicheskix otnosheniy Uzbekskix xanstv s Rossiey v XVIIIIXIX" deb atalgan dissertatsiya mavzularining berilishi bu ikki oliygoh o'rtasida ilmiy va tadqiqotlar masalasida keng munosabatlar o'rnatilganligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Institutning o'quv tarbiyaviy ishlari 2000-2001-o'quv yili xisoboti.
 2. Institut arxivi 2-fond – 3-ish17-bet.
 3. "Ziyo chashmasi" 01.01.2021-yil 286-son.
 - 4 I.A.Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" 1998-y. 5. Xayitboy Xaydarov "Jizzax viloyati tarixi" Toshkent 1996-yil. 6.
- <https://jdpu.uz>

